

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17398914>

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHNING YO'LLARI

Madraximova Shohista Bahrom qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti Iqtisodiyot kafedrasi stajor o'qituvchisi Abu-Rayhon

Beruniy nomidagi UrDU mustaqil izlanuvchisi Tel:99890 725 70 20

Shohistamadraximova7@gmail.com ORCID 0009-0001-0627-2387.

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni birlashtirish global muammo sifatida ko'tarilmoqda, chunki atrof-muhit degradatsiyasi iqtisodiy zararlar keltirib chiqaradi. Mavzu asosiy maqsadi-resurslarni samarali boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va siyosiy choralar orqali barqaror iqtisodiy model yaratishdir. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy yo'llaridan biri sifatida resurslarni saqlash, tiklash va mas'uliyatli boshqaruvni ta'kidlaydi. Masalan, energiya tejavchi texnologiyalarni qo'llash va chiqindilarni kamaytirish orqali korxonalar xarajatlarni qisqartirib, uzoq muddatli foyda ko'radi. atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiy barqarorlikning kaliti bo'lib, u uch pilla-ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy-asosida tizimli yechimlar talab etadi. Ushbu yo'llar orqali jamiyatlar barqaror rivojlanishga erisha oladi.

Kalit so'zlar. ekologik xavfsizlik, atrof-muhit, resurslar, yashil iqtisodiyot, resurslar oqilona foydalanish, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish.

KIRISH.

Ekologik xavfsizlik deganda hozirgi va kelajak avlodlar ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida qulay muhit va tabiiy resurs salohiyatini saqlagan holda sanoat faoliyatini jadal rivojlantirish sharoitida aholining xavfsiz, ekologik jihatdan sog'lom turmush tarzini yaratish tushuniladi. Ekologik xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlikning eng muhimlaridan biri sifatida nafaqat respublika hududida haqiqiy ekologik holatni aks ettiradi, balki iqtisodiy xavfsizlikning barcha sohalari va tarkibiy qismlari bilan yaqin organik 33 munosabatlardan iborat bo'ladi. Xususan, mamlakatimiz barqaror rivojlanish strategiyasining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'lom inson muhitini shakllantirish, uni madaniy-ma'naviy takomillashtirish shart-sharoitlari sanaladi.[2]

ADABIYOTLAR SHARHI.

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashishi va ishlab chiqarish, oziq-ovqat, energetika, ekologik vaziyatning yamonlashishi, moliya hamda boshqa sohalarda inqiroziy holatlarning kuchayishi va raqobat kurashining tobora shiddatli tus olishi

sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Bugungi rivojlanish strategiyalarini tez o'zgarishi, iqtisodiy noaniqlik sharoitida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash darajasini oshirishda zamon talablaridan kelib chiqib, yangi yondashuvlarga, strategiyalarga zarurat tug'iladi. Masalan, mintaqa darajasida inqiroziy jarayonlarni va xavf-xatarlarni o'z vaqtida bartaraf etilsa, u holda milliy iqtisodiyot darajasida global inqiroziy holatlarni vujudga kelishi tavakkalchiligining oldi olingan bo'ladi.[3]

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi shunday istiqbolli dasturlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”da makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun quyidagi vazifalari belgilab olingan:

80-maqсад: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish. Maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish. Respublika bo'yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo'yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash. Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish. Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish. Orolbo'yida xalqaro “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish. Shahar va tuman markazlarida har 50-100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil etish. Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish.[1]

Ekologik xavfsizlik: bu tadbirlar, jarayonlar, harakatlar, holatlar bo'lib, ular hech qachon tabiat muhitiga, odamlarga va barcha insoniyatga sezilarli katta zarar olib kelmaydi; jahon hududiy maydonida ekologik mutanosiblikni taxminlaydigan kompleks harakatlar; atrof-muhitning o'iga xos xususiyatlari yig'indisi bo'lib, biosferaga mumkin bo'lgan darajadagi yuklamani hamda ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, keyingi avlodga antropogen turdagi salbiy ta'sirlarni oldi olingan va bartaraf etilgan holda insonlarning hayotiy faoliyatini to'la ta'minlash. Ekologik xavfsizlik nafaqatgina milliy, balki transmilliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim bir tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. U inson sog'ligiga xavfsiz bo'lgan tashqi muhitga bo'lgan huquqlarni belgilaydi hamda texnogen faoliyat asosida tabiiy

resurslardan foydalanish shart-sharoitlarini ta'minlaydi va tartibga soladi. Ekologik xavfsizlik barcha ierarxik darajalarda geografik va ekologik tizimni tavsiflaydi.[4] Mintaqalarning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti uning ekologik vaziyatidan darak beradi. Hozirgi kunda ekologik vaziyatning og'irlashib borishi xavflarning to'xtovsiz ortib borishi mintaqalardagi tuproqning sho'rlanishi yer osti va yer usti suvlarining sathi pasayib ketishi, suv zaxiralarning, shu jumladan, yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi, Orol dengizining qurib borish xavfi kuchli ekologik xavf-xatar, tahdiddir. Bugun Orolbo'yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo'ldi. Bundan tashqari havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir. Mutaxassislarining ma'lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 million tonnaga yaqin zarralar qo'shilmoqda. jihatining

METODOLOGIYA.

Ekologik vaziyatni baholash uchun Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi institutlari (NIPTI “Atmosfera” va NPXS “Suv xo'jaligi ekologiyasi”) tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududini ekologik hududlashtirish metodologiyasi ishlab chiqilib, amalga oshirilgan. Hududlashtirish respublikaning ma'muriy-hududiy taqsimotiga asoslangan; rayonlashtiriladigan eng kichik hududiy birlik (takson) sifatida ma'muriy tuman, respublika yoki viloyatga bo'ysunuvchi shahar qabul qilingan. Har bir taksonning ekologik vaziyati 18 ta ekologik indikator (mezon) bo'yicha baholangan, ular hududlarning ekologik tanglik darajasi (ruxsat berilgan, kritik, favqulodda, ekologik falokat) bo'yicha an'anaviy taqsimoti bilan bir qatorda, balli baholarga ham ega bo'lib, o'rtacha solishtirma balli bahoni hisobga olgan holda xavfli va o'ta xavfli toifalarga bo'linadi. Hududni ekologik tanglik darajasiga ko'ra rayonlashtirish (viloyatlar bo'yicha) quyidagicha amalga oshiriladi: 400 va undan yuqori ball favqulodda tang, 205-400- kuchli tanglik, 150-250 - o'rtacha tanglik, 120-150 -sust tanglik va 120 ball normal (tanglik yo'q). Ekologik jihatdan eng og'ir ahvolda turgan hudud Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lib, bu yerdagi ekologik vaziyat favqulodda tang bo'lgan holda ahvol yanada og'irlashmoqda. [5]

Xorazm, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida ekologik vaziyat kuchli tanglik darajasida. Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi ekologik vaziyatni o'rtacha tanglikda deb tavsiflash mumkin. Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo va Andijon viloyatlaridagi vaziyatni sust tanglikda, Namangan, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi ahvol esa me'yoriy sharoitdadir. Bundan tashqari bu mintaqalarning har birining geografik joylashuviga binoan favqulotda og'ir ahvolda bo'lgan “qaynoq nuqtalari” ham bo'lishi mumkin.[6]

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi hududlarining ekologik holati iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlar bilan integratsiyalashgan tarzda tahlil qilinib. Aholi zichligi, sanoat korxonalarini soni, qishloq xo'jaligi yerlarining maydoni, suv iste'moli, transport vositalari soni, sanoat chiqindilari, qayta tiklanadigan energiya ulushi va o'rmon

maydoni kabi indikatorlar asosida hududlarning ekologik tanglik darajasini o'rganish.

1.1-jadval

O'zbekistonning asosiy hududlari bo'yicha ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar (2023–2024 yillar)²²

Hudud	Aholi zichligi (kishi/km ²)	Sanoat korxonalarini soni	Qishloq xo'jaligi yerlarining	Suv iste' moli (mln m ³)	Transport vositalari soni (ming dona)	Sanoat chiqindilari hajmi (ming tonna)	Qayta tiklanadigan energiya ulushi (%)	O' rmon maydoni (ming g)
Toshkent shahri	2000	11,930	12,000	300	500	50	12	5
Toshkent viloyati	150	7,273	850,000	5,000	180	400	15	150
Farg'ona viloyati	300	7,635	600,000	4,000	160	350	10	120
Samarqand viloyati	150	6,065	450,000	3,000	140	300	14	100
Buxoro viloyati	80	4,058	400,000	2,500	100	250	16	90
Qoraqalpog'iston	30	3,564	350,000	1,800	90	200	18	50
Namangan viloyati	250	4,909	500,000	3,200	150	280	13	110
Andijon viloyati	280	5,510	520,000	3,400	155	290	11	115
Navoiy viloyati	60	3,046	300,000	1,500	80	150	17	70
Surxondaryo viloyati	70	3,018	310,000	1,600	85	160	19	75
Sirdaryo viloyati	90	1,528	250,000	1,200	70	130	20	60
Jizzax viloyati	100	2,518	270,000	1,400	75	140	18	65
Qashqadaryo viloyati	110	3,675	350,000	2,000	95	180	16	85
Xorazm viloyati	120	3,962	320,000	1,700	90	175	14	80

Hududlarga xos ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun maxsus hududiy strategiyalar ishlab chiqish zarur. Suv va tuproq resurslarini boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish, sanoat chiqindilarini kamaytirish va ekologik texnologiyalarni joriy qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Transport tizimini ekologik jihatdan toza qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish ekologik holatni yaxshilash uchun muhim. O'rmonlarni saqlash va ko'paytirish ham karbon izini kamaytirishda katta ro'l o'ynaydi.

²² Muallif ishlanmasi

MUHOKAMA

Respublikaning ekologik siyosati tabiatning ayrim unsurlarini himoya qilishdan barcha umumiy ekotizimni himoya qilishni amalga oshirishga o'tishga, insonning yashashi uchun kerak bo'lgan hayotiy muhitning eng maqbul parametrlarini kafolatlashga qaratilgan. Bunday ekologik siyosatni hayotga tatbiq etish ijtimoiy iqtisodiy va jamiyatni to'lig'icha barqaror rivojlanishning shartlaridan biri bo'lib qolishi kerak.[7]

O'zbekiston hududida global mintaqaviy iqlimning o'zgarishi oqibatlarini baholash 2030-yillarga kelib, shimoliy hududlarda o'rtacha yillik haroratning o'sishi 2-3 darajaga va respublika janubiy qismida 1- darajaga o'sishi, tog'li hududlarda ancha kamroq ta'sir ko'rsatilishi kutilmoqda. O'zbekistonning barcha hududlarida yog'ingarchiliklar miqdorining 5 foizgacha, Farg'ona vodiysida 15 foizgacha, respublikamizning shimoliy qismida 15-20 foizgacha ortishi kutilmoqda. Sanoat korxonalari soni va sanoat chiqindilari hajmi asosiy ifloslantiruvchi manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi viloyatlarida sanoat faoliyatining yuqoriligi bilan bog'liq ravishda havo va suv ifloslanishi darajasi oshib bormoqda. Ushbu hududlarda chiqindilarni qayta ishlash tizimi yetarlicha shakllanmagan bo'lib, bu holat ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning hozirgi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish.
2. Qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish.
3. Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to'xtatish.
4. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor.

XULOSA.

Bugungi kunda ekologik muammolar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. O'zbekiston hududining ekologik holatini baholashda iqtisodiy va demografik omillarni hisobga olish zarurati oshib bormoqda. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining ekologik holatini iqtisodiy, demografik va atrof-muhit indikatorlari asosida kompleks tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ekologik tanglik darajasi hududiy jihatdan sezilarli tafovutlarga ega. Uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun hududlar kesimida tahlil asosida individual strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
- [2]. Iqtisodiy xavfsizlik fanidan o‘quv qo‘llanma. B.O.Tursunov Toshkent – 2021
- [3]. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. , Abulkasimov H.P., Mamatov A.A., Mamatov S.A., Saidgazieva S.S.-Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.-732bet
- [4]. Iqtisodiy Xavfsizlik. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan barcha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan Samarqand 2023
- [5] Markaziy Osiyo Mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar. G‘ofurov.S Tosh-2023
- [6]. Yashil iqtisodiyot. A.V.Vahobov TDIU-2020
- [7]. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati.-T.: 2018.-333 b

www.stat.uz

www.lex.uz

www.gov.uz

www.cbu.uz

www.bizneslab.uz